8-9-SINF ONA TILI DARSLARIDA MATNNI TAHLIL QILISHDA “RAFT” VA “INSERT” USULLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Po‘latova Marjona Inomjon qizi

polatovamarjona126@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tizesda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-9-sinflarida Ona tili darslarida matn ustida ishlashda “Insert” va “RAFT” interfaol usullarini qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. Usullarning o‘quvchilarning o‘qish, tushunish, tanqidiy fikrlash va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslanadi, amaliy qo‘llash bosqichlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, matn tahlili, interfaol usul, Insert, RAFT, tanqidiy fikrlash, nutq kompetensiyasi.

Ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda o‘quvchini bilimning passiv qabul qiluvchisidan faol ishtirokchisiga aylantirish asosiy vazifalardan biridir. Ona tili darslarida matn tahlili o‘quvchining tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiruvchi markaziy faoliyat hisoblanadi. Biroq an’anaviy yondashuvda o‘quvchilar ko‘pincha matnni shunchaki o‘qiydi, savollarga tayyor javob qaytaradi, matn mazmuni va uslubiy xususiyatlari ustida mustaqil fikr yuritmaydi. [1] Bu esa o‘qib tushunish va ijodiy yozish ko‘nikmalarining sustligiga olib keladi. Shu sababli matn bilan ishlashda o‘quvchi fikrlashini faollashtiruvchi usullarga ehtiyoj yuzaga keladi.

“INSERT” usuli o‘qish jarayonida o‘quvchining o‘z bilimini matn axborotiga solishtirishiga asoslanadi[2]. O‘quvchi matnni o‘qiyotib chetiga quyidagi belgilarni qo‘yadi:

V – bu menga ma’lum;

+ – bu men uchun yangi;

– – bu mening bilimimga zid;

? – bu menga tushunarsiz yoki qo‘shimcha ma’lumot kerak. Keyin belgilar jadvalga tushiriladi va juftlikda yoki guruhda muhokama qilinadi. Usulning Ona tili darslaridagi afzalliklari:

- o‘quvchi matnni sinchiklab, ongli o‘qiydi;

- mavjud bilimlari yangi mavzuga bog‘lanadi;

- tushunmagan o‘rinlarini aniqlash ko‘nikmasi shakllanadi;

- muhokama orqali nutq faolligi oshadi. Masalan, 8-sinfda ilmiy yoki publitsistik uslubdagi matn ustida ishlashda Insert o‘quvchiga yangi tushunchalarni ajratib olish va ularni oldingi bilimlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

“RAFT” usuli esa o‘quvchining o‘qigan matni asosida yozma ijodiy ish yaratishiga qaratilgan. U to‘rt elementdan iborat[3]:

R – yozuvchi roli (kim nomidan yozadi);

A – auditoriya (kimga yozadi);

F – shakl (xat, e’lon, intervyu, esse, kundalik va hokazo);

T – mavzu. Masalan, o‘quvchi matn qahramoni nomidan sinfdoshiga xat yozadi yoki muallif bilan xayoliy intervyu tuzadi.

RAFT usulining samaradorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchi matn mazmunini chuqur o‘zlashtirishga majbur bo‘ladi;

- turli uslub va janrlarda yozish ko‘nikmasi rivojlanadi;

- so‘z boyligi, imlo va uslubiy savodxonlik amaliyotda mustahkamlanadi;

- ijodiy va tanqidiy fikrlash kuchayadi. Usul yozma nutq (bayon, insho) ustida ishlashga ham yaxshi zamin yaratadi[4].

Tajribada ikki usulni ketma-ket qo‘llash yaxshi natija beradi. Birinchi bosqichda Insert yordamida matn mazmuni tushuniladi, yangi va noaniq o‘rinlar aniqlanib muhokama qilinadi. Ikkinchi bosqichda RAFT yordamida o‘zlashtirilgan bilim ijodiy mahsulotga aylantiriladi. Shunday qilib dars “tushunish – tahlil – ijod” mantiqida quriladi, bu esa o‘quv maqsadlarining yuqori darajalariga (qo‘llash, tahlil, baholash, yaratish) erishishga xizmat qiladi.

“Insert” va “RAFT” usullari ona tili darslarida matn tahlilini o‘quvchi uchun mazmunli va qiziqarli jarayonga aylantiradi. Insert o‘qib tushunish va bilimni tizimlashtirishni, RAFT esa ijodiy yozma nutqni rivojlantiradi. Ularni uyg‘unlikda qo‘llash o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Usullar 8-9-sinflarda DTS talablari va kompetensiyaviy yondashuvga to‘liq mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ta’limda interfaol usullar va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

2. Vaughn J., Estes T. Reading and Reasoning Beyond the Primary Grades. 1986.

3. Santa C. M. Content Reading Including Study Systems. 1988.

4. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.